

1-DARS. YOMG'IRLI KUN

Dars maqsadlari:

- hajmli applikatsiya tayyorlash ko'nikmasini shakllantirish;
- qaychi bilan ishslashda xavfsizlik qoidalarini mustahkamlash;
- qog'ozga ishlov berish mahoratini oshirish;
- andoza yordamida ishslash va chiziq bo'ylab qirqish ko'nikmasini rivojlantirish;
- nozik qo'l harakatlarini takomillashtirish, harakat muvofiqligi va diqqatni kuchaytirish.

Kerakli materiallar: oq karton, rangli qog'oz, qaychi, yelim, qalam, dumaloq shakldagi andoza (banka qopqog'i), darslik va buyumning namunasi.

1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomatni va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).

Quyidagi savollar bilan o'quvchilarga murojaat qiladi:

1. Kuzda ob-havo qanday bo'ladi? (bulutli, sovuq, iliq, shamolli, yomg'irli).
2. Yomg'ir yoqqanda odamlar ko'chaga nima olib chiqishadi? (soyabon).
3. Soyabonlar qayerda tayyorlanadi? (fabrikada).
4. Sizningcha, bugun darsda nima tayyorlaymiz? (soyabon).

3. Namuna tahlili (5 daqiqa).

Darsning bu qismi odatdagи tuzilish bo'yicha o'tkaziladi. Darslikda yordam sifatida o'quvchilar ish rejasini tuzishlari va amaliy qismni bajarishlari uchun video yo'rinqoma berilgan.

O'qituvchi qaychi bilan ishslashda xavfsizlik texnikasi qoidalarini eslatib o'tishni taklif qiladi.

Qaychi bilan ishslash qoidalari:

1. Qaychi bilan ishslashni faqat o'qituvchining ruxsati bilan boshlang.
2. Qaychini faqat mo'ljallangan maqsadda ishlating.
3. Qaychi bilan o'ynamang.
4. Stolda qaychini ochiq holda qoldirmang.
5. Qaychini stolga halqlarini o'zingizga qaratilgan holda qo'ying.
6. Qaychini uzatayotganda tig'ini yopib, halqlarini oldinga qilib uzating.

4. Amaliy qism (25 daqiqa).

Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo'lgan hollarda o'qituvchi yordam ko'rsatadi.

Avvalo, 1/4 doira shaklida 6 ta detal tayyorlash lozim. Andoza sifatida banka yoki piyola qopqog'idan foydalanish mumkin. Ularni chizib olib, konturi bo'ylab qirqish, so'ngra 4 qismga ajratish kerak. Keyin oq rangli karton qog'ozni ikkiga buklab, bir tomoniga binafsha rangli tayyorlamalardan "soyabon" hajmli applikatsiyasini, boshqa tomoniga esa sariq rangli doiradan "quyoshcha" applikatsiyasini darslikning 6-7-betlarida ko'rsatilganidek bajarish zarur.

5. Yakunlash va mulohaza (5 daqiqa).

1. Bugungi darsda nimalarni o'rgandingiz?
2. Qanday geometrik shakllar bilan ishladingiz?
3. Doirani necha qismga bo'ldingiz?
4. Xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

Kutilayotgan natijalar:

- materiallar (qog'oz, karton) bilan ishslash usul va uslublarini mustahkamlash;
- namunani tahlil qilish qobiliyatini o'zlashtirish;
- buyumni tayyorlash rejasini tuzishni va isjni bajarish ketma-ketligini tushuntirishni o'rganish.

2-DARS. KUZ FASLI

Dars maqsadlari:

- qo'l mehnati orqali fantaziya va tasavvurni ro'yobga chiqarish qobiliyatini o'stirish;
- tabiat go'zalligi va kuzning rang-barang jilolarini idrok etishni rivojlantirish;
- qog'oz bilan ishslash ko'nikmalarini takomillashtirish.

Kerakli materiallar: rangli qog'oz, qaychi, yelim, qalam, darslik, buyum namunasi.

1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).